

**UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARI VA OLIY TA’LIM
MUASSASALARI O’ZARO HAMKORLIGI BO’YICHA
XORIJIY TAJRIBA**

*Rizayeva Yulduz Mamir qizi
Mustaqil tadqiqotchi*

Xalqaro standartlar, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini inobatga olgan holda, o’quv dasturlari, darsliklar va o’quv qo’llanmalari, o’qitish uslubiyatini muntazam takomillashtirish, ta’limning barcha bosqichlarida tabiiy-ilmiy va muhandislik fanlarini o’qitishning amaliy tizimini joriy etish, o’qitishning barcha bosqichlarida xorijiy tillarni o’rganishni kengaytirish lozim. Shu bilan birga, pedagog va olimlarning xalqaro mehnat bozori sharoitlariga moslashishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

Oliy o’quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSh, Fransiya, Germaniya va Yaponiya modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo’nalishlar bo’yicha bir-biriga yaqin bo’lsa-da, lekin ushbu mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi.

Osiyo, Yevropa va AQShning rivojlangan mamlakatlar safidan o’rin olishida ushbu mamlakatlar universitetlarida zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiyalar yutuqlarining qo’llanishi asosiy rol o’ynagan. Ularning fan, texnika-texnologiyalar sohasida boshqa davlatlardan tezda o’zib ketganligining sababi shundaki, avvalo, ushbu mamlakatlarda erkin va ijodiy fikr qadrlanadi. Har bir insonga noyob iste’dod egasi deb qaraladi.

Globalashuv jarayonida mamlakatimiz barqaror taraqqiyotini ta’minlashda ilm-fan, yangi texnika-texnologiyalar rivoji muhim rol o’ynaydi. Quvonarlisi shuki, mamlakatimiz rahbariyati ushbu sohalarga katta e’tibor qaratmoqda. Kadrlar tayyorlash tizimini tubdan modernizatsiya qilishimiz lozim. Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni rivojlantirish, ta’lim sifatini ta’minlash va nazorat qilish borasida xorijiy mamlakatlar (Yaponiya, Germaniya, Angliya, Fransiya, Shvetsiya, AQSh)ning tajribalari O’zbekiston oliy ta’lim tizimidagi holatlar bilan qiyosiy tahlil qilinishi lozim. Bu o’rinda ilg’or mamlakatlarning oliy o’quv dargohlari bilan xalqaro ilmiy-pedagogik aloqalarni rivojlantirish, xalqaro ta’lim dasturlarida ishtirok etish, xalqaro loyiha va dasturlarda qatnashish uchun buyurtmalar berish, mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga qo’shilishini faollashtirish maqsadida olimlar va pedagoglar bilan o’zaro fikr almashinuv jarayonini kuchaytirish lozim. Chet ellardagi ko’plab iste’dodli o’zbek yosh olimlari bugungi kunda Osiyo, Yevropa, AQSh universitetlarida magistraturani tugatib, ilmiy ishlarini davom ettirib, fan doktorlari

bo'lib, o'sha mamlakat universitetlarida, ilmiy-tekshirish institutlarida samarali faoliyat ko'rsatishmoqda.

O'zbekistonning salohiyatini jahonga tanishtirishmoqda. Ular bilan har qancha faxrlansak arziydi. Birgina Vashingtondagi Xalqaro oziq-ovqat ilmiy tekshirish instituti (IFPRI)dan kelgan uch nafar yosh fan doktori mazmunli ma'ruzalar qilishdi va konferentsiya raisligini ham olib borishdi. AQSh, Yevropa mamlakatlari keyingi yillarda universitetlariga, ilmiy markazlariga jahonning barcha mamlakatlaridan talantli yosh olimlarni turli grantlar va dasturlar asosida taklif qilib, ularning ilmiy salohiyatidan foydalanib, o'z mamlakatlari taraqqiyotini ta'minlamoqda. Oxirgi yillarda Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya ham turli dastur va grantlar bilan jahondagi rivojlanayotgan mamlakatlardan iste'dodli yoshlarni chaqirib olishmoqda. Bular safida o'zbekistonlik yoshlar ham bor. Ayni kunda biz ham rivojlangan mamlakatlar universitetlarida va ilmiy-tekshirish muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'zbekistonlik iste'dodli yoshlarni mamlakatimizga taklif qilsak yaxshi bo'lardi. Ular o'z Vataniga kelib, mamlakatimizda ilm-fan, yangi texnika, texnologiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligiga va boshqa sohalar rivojiga hissa qo'shadigan vaqti keldi. O'ylaymanki, ushbu sa'y-harakatlar jonajon O'zbekistonimizning juda ko'p sohalarda jadallik bilan olg'a siljishiga, pirovardida, yurtimiz ravnaqiga va xalqimiz farovonligiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi **Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi** (keyingi o'rinlarda–Oliy maktab) yetakchi chet el ta'lim muassasalari va xalqaro tashkilotlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatish va hamkorlikni rivojlantirish, ular bilan ta'lim va boshqa sohalarda qo'shma hamkorlik dasturlarini amalga oshirish yuzasidan izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-yil 2 dekabr kuni, Oliy maktab direktori v.v.b., i.f.d, professor **Xasanov Rustam Rabbimovich** boshchiligida, Germaniyaning Evropa menejment va texnologiyalar maktabi (keyingi o'rinlarda–EMTM) prezidenti va boshqaruvchi direktori– professor **Yorg Roxoll** va hamkorlik dasturi bo'yicha direktori - professor **Frantsiska Frank** boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan videokonferensaloqa shaklida ishchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Muzokaralar davomida ikki ta'lim muassasalari o'rtasidagi mavjud hamkorlikni mustahkamlash, xamda uni yanada rivojlantirish istiqbollari bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi. Jumladan, ikki ta'lim muassasalari o'rtasida tinglovchilar, xodimlar va professor-o'qituvchilar bilan o'zaro almashuv dasturlarini tashkil qilish, malaka oshirish bo'yicha qisqa muddatli qo'shma ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, EMTM professor-o'qituvchilarini Oliy maktabning ta'lim jarayonlariga jalb etish imkoniyatlarini muhokama qildilar.

Koreya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi qoshidagi Toshkentdagi “Koreya ta'lim markazi” o'rtasida 2012-yil 11-iyunda tuzilgan o'zaro Anglashuv

Memorandumi asosida umumta’lim maktablari koreys tili o’qituvchilarini malakasini oshirish va o’quvchilar uchun turli fan va madaniy tadbirlar o’tkaziladi;

O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Multimediya umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi va Koreya ta’lim va axborot tadqiqotlari xizmati (KERIS) o’rtasida o’zaro Anglashuv Memorandumi imzolangan. Mazkur Memorandum doirasida boshlang’ich va o’rta ta’lim maktablarida axborot-kommunikatsiya texnologiyarini rivojlantirish shuningdek ta’lim tizimida AKTni joriy etishni jadallashtirishda o’zaro tajriba almashinib kelinmoqda.

Xorijiy davlatlar idoralari. Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Xitoy Xalq Respublikasi va Amerika Qo’shma Shtatlarining O’zbekistondagi elchixonalari bilan ta’lim sohasida o’zaro hamkorlik olib borilmoqda. Xorijiy va xalqaro nodavlat tashkilotlar:

O’zbekistondagi Britaniya Kengashi vakolatxonasi (1993 yil 15 oktyabrdagi O’zbekiston Respublikasi va Buyuk Britaniya Hukumatlari o’rtasidagi ta’lim, ilmfan va madaniyat sohasidagi Hamkorlik Shartnoma asosida). Ingliz tili o’qituvchilarining malakasini oshirish va ta’limga interaktiv usullarni tadbiq qilib va ulardan samarali foydalanish bo’yicha “Ingliz tili” loyixasi amalga oshiriladi. Toshkentdagi Gyote-Instituti. Nemis tili o’qituvchilarining malakasini oshirishi va ta’limda interaktiv usullarni tadbiq qilish va ulardan samarali foydalanish bo’yicha “Maktablar: kelajak hamkorlari” loyihasi amalga oshirilmoqda. Germaniyaning xorijdagi maktablar markaziy boshqarmasi (SFA). Toshkentdagi Gyote-instituti, O’zbekiston Respublikasi SFA boshqarmasi bilan hamkorlikda Respublikaning hamkor umumta’lim maktablarida nemis tilini o’qitish, nemis tili bo’yicha Xalqaro (“Fit in Deutsch 1”, “Fit in Deutsch 2” va “B1” imtihonlarini tashkillashtirish va diplomlar bilan taqdirlash hamda o’qituvchilar uchun Germaniyada tashkillashtiriladigan malakaviy kurslar amalga oshiradi.

O’zbekistondagi YUNISEF vakolatxonasi (Xalq ta’limi vazirligi va O’zbekistondagi YUNISEF vakolatxonasi o’rtasidagi muntazam olib boriladigan yillik ishlar rejasi asosida). Ushbu rejaga asosan quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

xalqaro standartlar asosida ta’lim, bilim va malakalar sifatini oshirish maqsadida yangi ta’lim sifati standartlarini ishlab chiqish; uzluksiz ta’lim tizimini takomillartirish, maktabgacha ta’lim qamrovini rivojlantirish; ekologik va tabiiy ofatlarni oldini olish bo’yicha tadbirlar. Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) Respublikamizning bir qator umumta’lim maktablari, maktabgacha ta’lim muassasalarida va bolalar va o’smirlar sport maktablarida informatika, sport, musiqa va turli madaniy tadbirlarni amalga oshirish va ko’maklashish bo’yicha ko’ngillilar faoliyat yuritadi;

Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) Respublikamizning bir qator umumta’lim maktablarida koreys tilini o’qitish bo’yicha ko’ngillilar faoliyat yuritadi;

“Sog’lom avlod uchun” Hukumatga qarashli bo’lmagan Xalqaro xayriya fondi. (O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, “Sog’lom avlod uchun” Hukumatga qarashli bo’lmagan Xalqaro xayriya fondi va “Siloam Center for the Blind” (Koreya Respublikasi) Xayriya tashkiloti o’rtasidagi hamkorlik shartnoma). Mazkur shartnoma xar yili o’zaro kelishuv asosida tuzilib, Respublikadagi imkoniyati cheklangan bolalar bilim oladigan ta’lim muassasalariga texnik beg’araz yordam ko’rsatiladi hamda maxsus maktablar o’qituvchilari uchun malaka oshirish kurslari amalga oshiriladi;

O’zbekistondagi Jahon Banki vakolatxonasi. Xalq ta’limi tizimi muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini takomillashtirish yo’nalishida Xalq ta’limi vazirligi, Jahon Banki va Ta’limda Global Hamkorlik tashkiloti ko’magida amalga oshirilayotgan “Maktabgacha va umumiy o’rta ta’limni takomillashtirish” loyihasi amalga oshirilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda ham ta’limga oid konstitusiyaviy normalar mustahkamlangan. Masalan, AQSH Konstitusiyaga muvofiq, ta’lim sohasi, shu jumladan, oliy ta’lim ham federal hukumat emas, balki shtatlar boshqaruv organlari vakolatiga kiritilgan. 1917 yilda ta’lim olishga bo’lgan huquqni konstitusiya darajasida mustahkamlagan birinchi davlat Meksika bo’ldi. Unda xususan, barcha uchun boshlang’ich ta’limning bepul bo’lishi tizimi joriy etilishi belgilangan. Fransiya Konstitusiyasi preambulasida barcha darajadagi jamoatchilik bepul va dunyoviy ta’limni tashkil etish davlatning burchi hisoblanishi belgilandi. Yaponiya Konstitusiyasi 26-moddasida barcha o’z qobiliyatiga muvofiq holda qonunda belgilangan tartibda ta’lim olishda teng huquqlarga ega deb belgilangan. Ispaniya Konstitusiyasi 27-moddasiga ko’ra, barcha fuqarolar ta’lim olish huquqiga ega. Universitetlar avtonomiya huquqidan foydalanadilar. Davlat hokimiyati otaonalarining o’z bolalariga ularning diniy va axloqiy ishonchiga mos keladigan ta’limni berish huquqlarini kafolatlaydi.

Italiya Konstitusiyasi 33-34-moddasiga binoan, maktab barcha uchun ochiqdir. Loyiq va qobiliyatli o’quvchilar garchand, ular tegishli mablag’dan mahrum bo’lsalarda, maktabning yuqori darajalariga o’tish huquqiga egadirlar. Respublika ta’lim masalalari bo’yicha umumiy normalar o’rnatadi va barcha darajadagi hamda turdagi davlat maktablarini ta’ sis etadi. Xususiy tashkilot va shaxslar davlat hisobidan moliyalashtirilmaydigan maktablar va ta’lim institutlarini ta’ sis etish huquqiga ega.

Davlat ta’lim muassasalari bilan tenglashishni talab qiluvchi nodavlat maktablarning huquq va majburiyatlarini belgilashda qonun ularning to’liq erkinligini, ularning tarbiyalanuvchilari uchun esa, - davlat maktablari bilan bir xildagi maktab tartibini ta’minlashi lozim. Turli darajadagi va turdagi maktablarga

qabul uchun, ularni tamomlash va kasbiy faoliyatga yo'llanma olish uchun davlat imtihonlari darajadagi hamda turdagi davlat maktablarini ta'sis etadi. Xususiylashkilot va shaxslar davlat hisobidan moliyalashtirilmaydigan maktablar va ta'lim institutlarini ta'sis etish huquqiga ega.

Davlat ta'lim muassasalari bilan tenglashishni talab qiluvchi nodavlat maktablarning huquq va majburiyatlarini belgilashda qonun ularning to'liq erkinligini, ularning tarbiyalanuvchilari uchun esa, - davlat maktablari bilan bir xildagi maktab tartibini ta'minlashi lozim. Turli darajadagi va turdagi maktablarga qabul uchun, ularni tamomlash va kasbiy faoliyatga yo'llanma olish uchun davlat imtihonlari belgilanadi. Germaniya Konstitusiyasi 7, 12moddalariga ko'ra, barcha nemislar o'zlari uchun ta'lim olish joyini erkin tanlash huquqiga egadirlar. Barcha maktab ishlari davlat nazorati ostida boladi, xususiylash maktablar ochish huquqi kafolatlanadi.

Davlat maktablarini almashtiruvchi xususiylash maktablar davlat ruxsatini talab qiladi va yerlar qonunlariga buysunadi. Bolalarni tarbiyalashga vakolatli shaxslar o'z farzandlarini diniylash ta'limda ishtirok etishini hal qilish huquqiga ega. Diniylash ta'lim davlat 9 maktablarida majburiylash predmet hisoblanadi, nokonfessional maktablar bundan mustasno. Davlatning nazorat huquqiga zarar yetkazmagan holda diniylash ta'lim diniylash jamoalarning asosiy prinsiplariga muvofiq holda amalga oshiriladi. Hech bir o'qituvchi o'z irodasiga qarshi ravishda diniylash ta'limni olib borishga majbur etilishi mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ziyomammedov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma.- T,: "Turon iqbol" nashriyoti. 2019 yil. 112-bet.

2.Yo'ldoshova J.R.Usmonova S.A.Zamonaviylash pedogogik texnologiya-larni amaliylashotga joriylash qilish-T: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2020 yil.